

## Kompyuter Terminlari Tarjimasida Yuzaga Keladigan Muammolar Va Vazifalar

*Hamidova Farida<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Globallashuv hamda rivojlanish jarayonlarining bir joyda turmasligini, uning statik harakati uzlusiz ravishda davom etishi barchamizga ma'lum. Bugungi kunda AKT jadallahsuvi davrida AKT sohasining bir qismi bo'lgan kompyuter texnologiyasi va og'zaki nutqimizda doimiy ravishda ishlatiladigan kompyuter terminlari hayotimizning ajralmas qismiga aylangani hech birimizga sir emas. Qayerga bormaylik, qaysi sohaga murojaat etmaylik kompyuter yoki kompyuter texnologiyasi o'sha kasb yoki soha vakillari ish faoliyatining asosiga aylanganini ko'ramiz.

**Kalit so'zlar:** AKT, globallashuv, texnologiya, ta'lif, metod, kompyuter, electron.

Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, texnikalashtirish, kompyuterlashtirish jarayoni, nafaqat, ishlab chiqarishning turli sohalari, balki madaniyat va ta'lif sohalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lif jarayonini yangi bosqichga ko'tardi, bu o'z o'mnida ta'lif mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish, uni yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi.

Dunyoning qayerida bo'lishimizdan qat'i nazar, bir-birimiz bilan muloqot qilish juda keng tarqalgan. Yangi texnologiyalar va kompyuterlar bilan munosabatlarni yangi ma'no, tushunchaga ega bo'ldi va afsuski ularga qaramlik kundan-kunga ortib bormoqda. Buning sababi shundaki, kompyuter inson hayotining muhim qismiga aylanganlihi. Shu nuqtai nazardan, inson va kompyuter o'rtafidagi aloqani osonlashtirish uchun kompyuter tilidan foydalanish (kompyuter atamalari, lug'at, metafora, jargon va boshqalar) qulay sharoitlarni shakllantirishda muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi. Bu yerda kompyuter tili-bu kompyuter lug'ati, atamalari, metaforalari, elektron kompyuterlar terminlari, umuman olganda kompyuterlar bilan ishlashga yordam beradigan yordamchi vositalardir.

Har qanday tarjimon uchun sifatli tarjima faoliyatining asosiy va samarali usullari va strategiyalarini bilish juda muhimdir. Terminlarni tarjima qilish tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan eng muhim narsalardan biridir. Tarjima sifatini oshirish maqsadida deyarli barcha mamlakatlarda tarjima masalalarini tartibga soluvchi maxsus qonunlar va qoidalalar mavjud. Hozirgi vaqtida tarjimonlarning terminlar tarjima faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan turli xil tarjima strategiyalari va usullari mavjud. Biroq, ushbu usullar va strategiyalarga ega bo'lish, bajarilgan barcha tarjima ishlari mukammal degani emas. Yaxshi tarjima, birinchi navbatda, turli xil ixtisoslashgan sohalar, tarjima jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar, ikki yoki undan ortiq tillarni chuqur bilish va boshqalar bilan tanish bo'lgan professional tarjimonga muhtoj. Shunday qilib, ushbu tadqiqot ishida biz yuqorida aytganlarimizga qo'shimcha ravishda taerminshunoslarning o'z ishi davomida duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolarni tasvirlashga ham harakat qilamiz.

Dr. Miremadining so'zlariga ko'ra, tarjima muammolari ikkita asosiy toifaga bo'linadi:

- leksik muammolar;
- sintaktik muammolari

Kompyuter terminologiyasi-bu IT mutaxassislaringen professional guruhi va boshqa kompyuter foydalanuvchilari tomonidan ishlatiladigan maxsus jargon va terminlarning jamlanma asosi. Kompyuter Terminografiya tarjima nazariyasida quyidagi masalalar terminshunoslar uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi:

<sup>1</sup> Navoiy Davlat Pedagogika instituti 2kurs magistr



1. U yoki bu terminning ikkinchi bir tilda aynan mavjud bo‘lmasligi;
2. Terminlarning so‘z birikmalari tarzida ifodalanishi;
3. Matnning uslubini aniqlash va ilmiy terminlarning ma’nolarini uslubga ko‘ra o‘zgarishi;
4. Muayyan soha doirasida bir leksemaning turli ma’noda qo‘llanilishi;
5. Muayyan terminning bir necha sohada turli shaklda ifodalanishi.

Kompyuter va kompyuter texnologiyasida qilinayotgan yangiliklar tilga juda ham ko‘p yangi so‘zlarni olib kirmoqda. Masalan: *mikroprotsessor, operativ tizim,*

*piksel, obyekt* va boshqalar. Bu so‘zlarning aksariyati ingliz tili negizida paydo bo‘lmoqda. Kompyuter sohasida ishlovchi har qanday shaxs bu so‘zlarni o‘z tiliga borligicha (hech qanday tarjimasiz) qabul qilmoqda, ya’ni tillarga bu so‘zlar “jargon” sifatida kirib kelmoqda. Keyinchalik esa bu so‘zlar o‘z-o‘zidan yangi terminlarga aylanib qolmoqda.

So‘z qanchalik keng tarqalgan bo‘lsa, uning sinonimlari shunchalik ko‘p bo‘ladi. Kompyuter terminlari lug’atlarini yaratuvchi terminshunoslar oldida turgan bиринчи muammo - har bir terminning iloji boricha ko‘proq sinonimlarni yozib olish va mavjud ba’zi taniqli ma’nolarini aniqlash. Ko‘pincha kompyuter terminlari turli xil vaziyatlarda kompyuterlarga hech qanday aloqasi yo‘q majoziy ma’nolarda ham ishlatilishiga guvoh bo‘lamiz. So‘zlarning jargondan professionalizmlarga o‘tish kabi muammoni ham e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ko‘pincha, professional terminlar eski terminlarga aylanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kompyuter terminologiyasi umumiyligi iste’moldagi so‘zlarning terminologik lug’at tarkibiga o‘tish yo‘li bilan va aksincha yo‘l bilan shakllanadi. Bunday holda, kompyuter terminlari motivatsiyasi (ya’ni so‘zning (shakli) tovush va uning ma’nosini o‘rtasidagi bog’liqlik) aniq ifodalangan.

Tarjima insoniyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda texnika olami rivolanishi bilan kirib kelayotgan so‘zlarni tarjima qilish bir muncha muammolarni yuzaga keltirmoqda. Kompyuter olami va uning ishlash jarayonini bilan shug‘ullanuvchi fan informatika tilning boyligi va imkoniyatini hisobga olmagan holda butun dunyoda paydo bo‘layotgan so‘zlarni o‘zbek tiliga shunchaki qanday bo‘lsa shundayligicha olib kirmoqda. Masalan: *diskretlilik* so‘zini misol qiladigan bo‘lsak. Bu so‘z inglizcha *discreteness* so‘zining “o‘zbekchalashuvi”, lekin tarjimasi emas. Bu so‘z o‘zbek tiliga usluksizlik deb tarjima qilinadi. Albatta kitob mualliflari so‘zning ma’nosini qavs ichida berib o‘tishgan. Lekin nega bu so‘zni lug‘atimizga olib kirishmoqchi bo‘lishgani tushunarsiz. Shu kitobning 30-sahifasida “... dasturlarni kompyuterlar bajara olishi uchun translyatorlar deb nomlanuvchi maxsus dasturlar raqamli ko‘rinishga o‘tkazib beradi” deb yozilgan. Bu jumladagi *translyatorlar* so‘zi e’tiborga molik. Aynan bu so‘z o‘zbek tiliga tarjimon deb tarjima qilinadi. Agar biz texnik jihatdan nazar solib bu so‘zni muqobil deb olmay qoldirishimiz zarur deb hisobga oлганимизда ham xatolikni ko‘rishimiz mumkin. Chunki bu so‘zga o‘zbek tili ko‘plik qo‘shimchasi bo‘lmish –*lar* qo‘shilgan. Bundan tashqari so‘z [trænz’leɪtə] ya’ni *transleytor* tarzida olib kirilishi kerak edi. Bu so‘zni o‘zbek tiliga kirib kelishida rus tilining o‘rni bo‘lganligiga shubha yo‘q. Rusiyabzon xalq ingliz tilidagi bu so‘zni “транслятор” tarzida o‘zlashtirgan. *Protsedura* so‘zi ham aynan muammoli jarayonlardan biri. Bu so‘z *procedure* ingliz tilidan tarjima qilinganda *jarayon* tarzida tarjima qilinadi. Agar bu so‘zni tilimizga qabul qiladigan bo‘lsak transliteratsiyadan foydalanib *procedure* yoki [prə’si:dʒə] *prosije* tarzida qabul qilishimiz lozim bo‘ladi. *Graph* so‘zining ma’nosini berishda transliteratsiyadan to‘g‘ri foydalanilgan hamda o‘zbek tiliga “graf” tarzida o‘zlashtirilgan. Lekin bu so‘zni o‘zlashtirishda tarjima qilish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rilmagani e’tiborga molik. Bugungi kunda adabiyotlarda *web-sahifa*, *web-brauzer* atamalarini ko‘p uchratishimiz mumkin. Ularning ko‘pchiligidagi bu so‘zlar qo‘shtirnoqqa olinmagan yoki ajratib ko‘rsatilmagan. Buning oqibatida so‘zdagi ingliz tiliga xos bo‘lgan “w” harfi o‘zbek alifbosiga kirib qolmoqda.



### The list of used literature

1. Anisimov A.V. Kompyuternaya lingvistika: Mifы. Algoritmy .Yazyk. -Kiyev: Naukova-dumka, 1991, s.15
2. Arutyunova N.D. Yazыkovaya metafora: (sintaksis i leksika) // Yazыk i mir cheloveka / N.D. Arutyunova. – M., 1999. – S. 15-98. 8 52-55
3. Butterfield A., Ngondi G. E., Kerr A. (ed.). A dictionary of computer science. Oxford University Press, 2016.
4. Bolshakov I. A., Gelbukh A. Computational linguistics: models, resources, applications // Computational Linguistics. 2006. V. 32. №3. P. 443-444.
5. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. М.: Просвещение, 1987.-С.71.13
6. Clark, C. Fox, S. Lappin. John Wiley & Sons, 2013. The handbook of computational linguistics and natural language processing/ ed.
7. Dadaboyev X. Hozirgi o‘zbek tili qurilishida o‘zbek tilining o‘rni // Tilshunoslikning dolzARB masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2015. 24-31-b.[11]

